

OILADA TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(Ichki ishlar organlari xodimlari oilalari misolida)

Sultanmurodova Zilola Shuhrat qizi
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi "Dialog"
maxsus ixtisoslashtirilgan maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda tolerantlikning psixologik mazmuni, tuzilishi va namoyon bo'lish xususiyatlari ichki ishlar organlari xodimlari oilalari misolida tahlil qilinadi. Xizmat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari — yuqori darajadagi stress, kechayu kunduz xizmat rejimi, javobgarlik yuki, jismoniy xavf-xatar va kasbiy deformatsiya xavfi — oila a'zolari o'rtasidagi bag'rikenglik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi nazariy va empirik jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda 30-45 yosh oralig'idagi ichki ishlar xodimlari va ularning turmush o'rtoqlari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltirilgan bo'lib, kasbiy stress darajasi, xizmat staji va oilaviy tolerantlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan tasdiqlangan. Maqola oxirida amaliy-psixologik yordam dasturi bo'yicha konkret tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, oilaviy munosabatlar, ichki ishlar xodimlari, kasbiy stress, bag'rikenglik, kasbiy deformatsiya, emotsional yonilish, moslashuvchanlik, oilaviy tizim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В СЕМЬЕ
(на примере семей сотрудников органов внутренних дел)

Аннотация: В данной статье анализируются психологическое содержание, структура и особенности проявления толерантности в семейных отношениях на примере семей сотрудников органов внутренних дел. Теоретически и эмпирически обосновывается, что специфические особенности служебной деятельности — высокий уровень стресса, круглосуточный режим службы, высокая степень ответственности, физические риски и вероятность профессиональной деформации — оказывают существенное влияние на уровень толерантности между членами семьи. В исследовании представлены результаты анкетирования сотрудников органов внутренних дел в возрасте 30–45 лет и их супругов(супруг), подтверждающие статистически значимую взаимосвязь между уровнем профессионального стресса, стажем службы и показателями семейной толерантности. В заключение статьи предложены конкретные рекомендации по организации программы практической психологической помощи.

Ключевые слова: толерантность, семейные отношения, сотрудники органов внутренних дел, профессиональный стресс, терпимость, профессиональная деформация, эмоциональное выгорание, адаптивность, семейная система.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TOLERANCE IN THE FAMILY (A Case Study of the Families of Internal Affairs Officers)

Abstract: *This article examines the psychological nature, structure, and manifestations of tolerance in family relationships, using the families of internal affairs officers as a case study. It theoretically and empirically demonstrates that the specific characteristics of police service—including high levels of occupational stress, irregular and around-the-clock working schedules, heavy responsibility, physical risks, and the potential for professional deformation—have a significant impact on the level of tolerance among family members. The study presents the results of a survey conducted among internal affairs officers aged 30–45 and their spouses. The findings reveal a statistically significant relationship between occupational stress, length of service, and indicators of family tolerance. The article concludes with practical recommendations for developing a psychological support program aimed at strengthening family relationships and promoting tolerance.*

Keywords: *tolerance, family relationships, internal affairs officers, occupational stress, forbearance, professional deformation, emotional burnout, adaptability, family system.*

KIRISH: Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlar barqarorligi ko'p jihatdan oila a'zolarining bir-biriga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish qobiliyatiga bog'liq. Oila — shaxsning asosiy emotsional tayanch nuqtasi, kuch to'plash va tiklanish maskani bo'lib, aynan shu joyda inson kundalik hayotda to'plagan zo'riqishdan xalos bo'ladi. Biroq ba'zi kasb turlari o'z tabiatiga ko'ra yuqori darajadagi stress, javobgarlik va xavf-xatar bilan bog'liq bo'lib, bu esa oilaviy munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati aynan shunday kasblar toifasiga kiradi. Tolerantlik muammosi zamonaviy psixologiyada nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki oilaviy-shaxslararo munosabatlar konteksti nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki oilaviy tolerantlik — bu shunchaki "chidash" yoki "toqat qilish" emas, balki ikki tomonlama, faol va konstruktiv jarayon bo'lib, u orqali oila a'zolari bir-birining farqli tomonlarini, kayfiyatini, kasbiy yukini tushunish va qabul qilish orqali munosabatlarni saqlab qolishadi.

Tolerantlik tushunchasining nazariy tahlili: Tolerantlik (lot. tolerantia — sabr-toqat, chidamlilik) tushunchasi psixologiya fanida turlicha talqin etiladi:

1.G.Olport tolerantlikni shaxsning ichki barqarorligi, o'zini o'zi qabul qilish darajasi va frustratsiyaga chidamlilik bilan bog'liq shaxsiy xususiyat sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, ichki nomybofiqlikka ega, o'ziga ishonchi past shaxslar ko'proq intolerant (bag'rikeng bo'lmagan) bo'ladi.

2.G.U.Soldatova tolerantlikni ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi, farqlarga nisbatan konstruktiv munosabat, ziddiyatlarni zo'ravonliksiz hal qilish qobiliyati sifatida talqin qiladi va uni uch komponentga ajratadi: kognitiv (boshqacha fikrlashni tushunish), emotsional (farqlarga nisbatan xotirjamlik) va qilish qobiliyati).

3.Oilaviy psixologiya nuqtai nazaridan (N.I.Olifirovich va boshq.) tolerantlik — bu turmush o'rtoqlarning bir-birining kamchiliklari, kayfiyati, qadriyatlar va his-tuyg'ularidagi farqlarga nisbatan hurmat bilan, ziddiyatga bormasdan munosabatda bo'lish, shu bilan birga o'z chegaralarini ham saqlab qolish qobiliyatidir.

Shunday qilib, oilaviy tolerantlik uch darajada namoyon bo'ladi:

1.kognitiv daraja — turmush o'rtoqning fikri, pozitsiyasi, kasbiy yukini aql bilan tushunish;

2.emotsional daraja — g'azab, asabiylashish yoki tanqidga tez berilib ketmaslik, sabr-toqat saqlash;

3.xulq-atvor darajasi — nizoli vaziyatlarda tajovuzkorlik yoki qochishga emas, muzokara va murosaga asoslangan xulq-atvorga moyillik.

Ichki ishlar organlari xodimlari oilalari alohida ijtimoiy-psixologik guruh sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega: 1.Xizmat faoliyatining kechayu kunduz, notekis tartibi — bu oilaviy vaqt taqsimotini buzadi, turmush o'rtoqlar birga o'tkazadigan vaqt miqdorini kamaytiradi; 2.Doimiy jismoniy va emotsional zo'riqish, xavf-xatar bilan bog'liqlik — xodimda doimiy "ogohlik holati" (hyperarousal) shakllanishiga olib keladi, bu esa oilada ham ortiqcha nazorat yoki jahldorlik ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin; 3.Kasbiy deformatsiya xavfi — uzoq muddat huquqbuzarlik, ziddiyat va salbiy holatlar bilan ishlash natijasida xodimda shubhalanish, qattiqqo'llik, ishonchsizlik, odamlarga nisbatan "professional sinizm" kabi xususiyatlar shakllanishi mumkin, bu xususiyatlar oilaviy mulohazaga ham ko'chishi ehtimoli yuqori; 4.Emotsional "yonilish" (burnout) sindromi — his-tuyg'ularning "so'nishi", his-tuyg'ular ifodasining kamayishi, natijada turmush o'rtoqqa nisbatan iliqlik va e'tibor kamayishi mumkin; 5.Ma'lumotlarning maxfiyligi talabi — xodim xizmat vaqtida boshidan kechirgan voqealarni oilada to'liq baham ko'ra olmaydi, bu esa turmush o'rtoqda tushunmovchilik va begonalashish hissini uyg'otishi mumkin.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat davomida to'plangan emotsional zo'riqish oilaga "olib kirilishi" (work-family spillover hodisasi) natijasida turmush o'rtoqlar o'rtasidagi bag'rikenglik darajasi pasayishi, nizolar chastotasi oshishi mumkin. Shu bilan birga, aynan

mana shunday sharoitda tolerantlik oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy resurs vazifasini o'taydi: xodimning turmush o'rtog'i tomonidan ko'rsatiladigan tushunish, sabr-toqat va emotsional qo'llab-quvvatlash kasbiy stressning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada yumshatadi. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va farazlari:

Tadqiqot maqsadi — ichki ishlar organlari xodimlari oilalarida tolerantlikning psixologik xususiyatlarini, uning kasbiy stress, xizmat staji va oilaviy moslashuvchanlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalar bajarildi:

1. Tolerantlik va oilaviy moslashuvchanlik tushunchalarining nazariy tahlili;
2. Ichki ishlar xodimlari oilalarida tolerantlik darajasini empirik o'rganish;
3. Kasbiy stress darajasi, xizmat staji bilan oilaviy tolerantlik o'rtasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish;
4. Empatiyaning oilaviy tolerantlikni saqlashdagi kompensatorlik rolini aniqlash;
5. Olingan natijalar asosida amaliy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy farazlar: F1: Ichki ishlar xodimlari oilalarida oilaviy tolerantlik darajasi xizmat stajining oshishi bilan pasayish tendensiyasiga ega. F2: Kasbiy stress darajasi yuqori bo'lgan xodimlar oilalarida turmush o'rtoqning empatik tushunishi oilaviy tolerantlikni sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichga olib chiqadi. F3: Emotsional yonilish darajasi bilan oilaviy tolerantlik o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

METODOLOGIYA: Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotda ichki ishlar organlarining turli bo'linmalarida (patrul-postlar xizmati, tergov, jamoat xavfsizligi bo'limlari) xizmat qiluvchi 30-45 yosh oralig'idagi 60 nafar xodim (barchasi erkak) va ularning turmush o'rtoqlari (60 nafar ayol), jami 120 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlanmaning o'rtacha yoshi — 36,8 yosh ($SD=4,2$). Ishtirokchilar xizmat stajiga ko'ra ikki guruhga ajratildi:

1-guruh — xizmat staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlar oilalari ($n=30$ juftlik, o'rtacha staj 2,9 yil);

2-guruh — xizmat staji 5 yildan ortiq bo'lgan xodimlar oilalari ($n=30$ juftlik, o'rtacha staj 11,3 yil). Guruhlar yosh, ta'lim darajasi va nikoh staji bo'yicha statistik jihatdan bir-biriga yaqin ($p>0,05$), bu esa taqqoslash natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi. Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

1. G.U. Soldatovanning "Tolerantlik indeksi" so'rovnomasi (22 ta buyruq) — shaxsning umumiy, etnik va ijtimoiy tolerantlik darajasini aniqlash uchun. Ushbu tadqiqot doirasida metodika oilaviy kontekstga moslashtirilib, qo'shimcha 8 ta buyruq (turmush o'rtoqqa nisbatan sabr-toqat, farqlarni qabul qilish, nizolarga munosabat bo'yicha) kiritildi;

2. V.V. Boyko metodikasi bo'yicha emotsional yonilish (kuyish) darajasini aniqlash so'rovnomasi (3 fazani — "zo'riqish", "rezistensiya", "so'nish" — baholovchi 84 ta savol);

3. Oilaviy moslashuvchanlik va bog'liqlikni baholovchi FACES-3 (D.Olson) metodikasining moslashtirilgan varianti — oila tizimidagi moslashuvchanlik va hissiy yaqinlik darajasini aniqlash uchun;

4. Kasbiy stress darajasini o'lchovchi so'rovnoma (Ch.Spilberger shkalasi asosida moslashtirilgan, xizmat sharoitlariga xos stress omillarini o'z ichiga olgan qo'shimcha blok bilan);

5. Muallif tomonidan tuzilgan qo'shimcha anketa — xizmat staji, oilaviy nizolar chastotasi va sabablari, o'zaro tushunish darajasi, bo'sh vaqtni birga o'tkazish chastotasi bo'yicha 15 ta savol.

Tadqiqot uch bosqichda o'tkazildi:

1. Tayyorlov bosqichi — muammoning nazariy tahlili, metodikalarni tanlash va moslashtirish, tadqiqot bazasini aniqlash;

2. Asosiy (empirik) bosqich — respondentlar bilan individual so'rovnoma o'tkazish (har bir juftlik alohida, bir-biridan mustaqil holda so'rovnomaning to'ldirishi, bu esa javoblarning bir-biriga ta'sirini oldini olish uchun qilindi);

3. Yakuniy bosqich — olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va natijalarni talqin qilish.

2.4. Ma'lumotlarni qayta ishlash: Olingan natijalar SPSS Statistics dasturi (26-versiya) yordamida statistik tahlil qilindi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun Studentning t-mezoni, o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pearsonning chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti qo'llanildi. Barcha hisob-kitoblar $p < 0,05$ ishonchlilik darajasida amalga oshirildi. Metodikalarning ichki muvofiqligi Kronsba x alpha koeffitsienti orqali tekshirildi ($\alpha = 0,79-0,88$ oralig'ida, bu qoniqarli ko'rsatkich hisoblanadi).

NATIJALAR: Guruhlar bo'yicha umumiy tolerantlik darajasi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1-guruh (xizmat staji kam) oilalarida umumiy tolerantlik indeksi o'rtacha 78,4 ballni ($SD = 8,1$), 2-guruh (xizmat staji ko'p) oilalarida esa 64,2 ballni ($SD = 9,6$) tashkil etdi. Guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi ($t = 3,12$; $p < 0,05$), bu esa birinchi farazni tasdiqladi — xizmat stajining oshishi bilan oilaviy tolerantlik darajasi pasayish tendensiyasiga ega.

Tolerantlikning tarkibiy qismlari bo'yicha tahlil quyidagi manzarani berdi: eng katta farq emotsional komponent bo'yicha kuzatildi (1-guruh — 27,3 ball; 2-guruh — 19,8 ball; $t = 3,45$; $p < 0,01$), bu esa uzoq stajli xodimlarning oilada his-tuyg'ularini nazorat qilishda ko'proq qiyinchilik chekishini ko'rsatadi. Kognitiv komponent bo'yicha farq unchalik katta emas (1-guruh — 28,1 ball; 2-guruh — 25,4 ball; $t = 1,68$; $p > 0,05$) — ya'ni xizmat staji oshgan xodimlar ham turmush o'rtog'ining pozitsiyasini aqliy jihatdan tushunishni saqlab qolishadi, biroq buni his-tuyg'u va xulq-atvor darajasida amalga oshira olmasligi mumkin.

3.2. Emotsional yonilish va tolerantlik o'rtasidagi bog'liqlik

Emotsional yonilish darajasi bo'yicha ham shunga o'xshash natija qayd etildi: 2-guruh xodimlarida emotsional "so'nish" fazasi ko'rsatkichlari 1-guruhga nisbatan 1,4 barobar yuqori bo'lib chiqdi (mos ravishda 58,7 va 41,2 ball). "Rezistensiya" (qarshilik) fazasi barcha respondentlarda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu xodimlarning emotsional resurslarini "tejash" strategiyasidan foydalanishini ko'rsatadi — bu strategiya xizmatda foydali bo'lsa-da, oilada emotsional yaqinlikni kamaytirishi mumkin. Korrelyatsion tahlil emotsional yonilish darajasi bilan oilaviy tolerantlik o'rtasida teskari, o'rtacha kuchdagi bog'liqlik borligini ko'rsatdi ($r=-0,47$; $p<0,05$), bu uchinchi farazni tasdiqlaydi.

3.3. Empatiyaning kompensatorlik roli

Ayni paytda, turmush o'rtoqning empatik tushunish darajasi yuqori bo'lgan oilalarda (FACES-3 metodikasi bo'yicha "moslashuvchan" va "bog'liq" tipdagi oilalar) kasbiy stress darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, tolerantlik ko'rsatkichlari past darajaga tushmadi, aksincha o'rtacha-yuqori darajada saqlanib qoldi. Empatiya va tolerantlik o'rtasida ijobiy, statistik jihatdan ishonchli bog'liqlik aniqlandi ($r=0,52$; $p<0,05$). Bu ikkinchi farazni tasdiqlaydi: turmush o'rtoqning empatik va qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi kasbiy stressning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sirini kompensatsiya qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, regressiya tahlili natijalariga ko'ra, empatiya darajasi oilaviy tolerantlikdagi umumiy o'zgaruvchanlikning taxminan 27 foizini ($R^2=0,27$) tushuntirib beradi — bu empatiyaning oilaviy tolerantlikni bashorat qiluvchi eng kuchli omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

3.4. Oilaviy nizolar chastotasi va sabablari

Oilaviy nizolar chastotasi bo'yicha so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, 2-guruh oilalarining 46 foizida haftasiga bir necha marta kichik nizolar kuzatiladi, 1-guruhda esa bu ko'rsatkich 21 foizni tashkil etdi. Nizolarning asosiy sabablari sifatida respondentlar quyidagilarni ko'rsatishdi:

xodimning xizmatdan charchab, "yopiq" holatda qaytishi — 58%;

bo'sh vaqt yetishmasligi, birga o'tkazilgan vaqtning kamligi — 44%;

xizmat mavzusidagi gaplashishdan bosh tortish, "sirlilik" — 37%;

moliyaviy masalalar — 29%;

farzandlar tarbiyasiga oid qarashlar farqi — 24%;

xodimning ortiqcha nazoratchilik yoki shubhachilik xususiyati — 22%.

Shu bilan birga, respondentlarning 68 foizi turmush o'rtog'ining o'zini "tushunishga harakat qilishi"ni nizolarni tezroq hal qilishning asosiy omili sifatida ko'rsatdi, bu esa empatiyaning amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

MUHOKAMA: Natijalarning nazariy talqini. Olingan natijalar ichki ishlar xodimlari oilalarida tolerantlikning shakllanishi kasbiy faoliyat xususiyatlari bilan

chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xizmat stajining oshishi bilan kuzatilgan tolerantlik darajasining pasayishi, avvalambor, kasbiy deformatsiya va emotsional yonilish jarayonlari bilan izohlanadi: uzoq yillar davomida yuqori zo'riqish sharoitida ishlash xodimning emotsional resurslarini kamaytiradi, natijada u oilada ham xuddi xizmatdagidek qat'iy, tanqidiy yoki distansiyalangan pozitsiyani egallashi mumkin. Bu hodisa psixologiyada "kasbiy rolning oilaviy rolga ko'chishi" (role spillover) nomi bilan tanilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, kognitiv komponent (tushunish qobiliyati) xizmat staji oshishi bilan unchalik pasaymaydi — xodim aqliy jihatdan turmush o'rtog'ining pozitsiyasini tushunishni davom ettiradi, biroq buni emotsional va xulq-atvor darajasida namoyon qila olmaydi. Bu — "bilish bilan qilish o'rtasidagi tafovut" (bilib turib qila olmaslik) hodisasi bo'lib, amaliy-psixologik yordamda alohida e'tiborga loyiq.

4.2. Himoya omili sifatida empatiya:

Shu bilan birga, turmush o'rtoqning empatik va qo'llab-quvvatlovchi munosabati muhim himoya omili (protektiv faktor) sifatida namoyon bo'ladi. Bu natija oilaviy tizimlar nazariyasidagi qarashlarga to'liq mos keladi: oila a'zolarining bir-biriga moslashuvchanligi va o'zaro tushunishi tashqi stress omillarining salbiy ta'sirini yumshatuvchi asosiy resurs hisoblanadi. Boshqacha aytganda, xodimning kasbiy stressi o'zi bilan emas, balki turmush o'rtog'ining unga qanday munosabatda bo'lishi bilan oilaviy barqarorlikka ta'sir qiladi — bu esa amaliy jihatdan juda muhim xulosa, chunki u faqat xodim bilan emas, balki butun oila bilan ishlash zarurligini ko'rsatadi.

4.3. Amaliy tavsiyalar: Olingan ma'lumotlar amaliy jihatdan ichki ishlar organlarida xodimlar va ularning oila a'zolari bilan psixologik-profilaktik ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Kasbiy stajga qarab differensiyalangan yondashuv — 5 yildan ortiq xizmat stajiga ega xodimlar bilan emotsional yonilishning oldini olish va uni bartaraf etish bo'yicha maxsus treninglar (relaksatsiya texnikalari, stressni boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish mashg'ulotlari) muntazam o'tkazilishi lozim;

2. Turmush o'rtoqlar bilan ishlash — xodimlarning turmush o'rtoqlari uchun kasbiy stress xususiyatlari, emotsional yonilish belgilari va oilada qo'llab-quvvatlash usullari bo'yicha psixologik ma'ruza va seminarlar tashkil qilish, bu orqali ularning empatik qobiliyatini va vaziyatni tushunish darajasini oshirish;

3. Oilaviy maslahat xizmati — ichki ishlar organlari tizimida ixtisoslashgan oilaviy psixolog xizmatini yo'lga qo'yish, xodim va uning turmush o'rtog'i birgalikda murojaat qilishi mumkin bo'lgan konfidensial maslahat punktlarini tashkil etish;

4. Psixokorreksion dasturlar — oilaviy tolerantlikni oshirishga qaratilgan maxsus trening dasturini ishlab chiqish, unda muloqot ko'nikmalari, faol tinglash, nizolarni konstruktiv hal qilish texnikalari o'rgatilishi;

5. Erta profilaktika — xizmatga endigina qabul qilingan yosh xodimlar va ularning oilalari bilan boshidanoq (staj 1-2 yil davomida) profilaktik ishlar olib borish, bu kasbiy deformatsiyaning oldini olishda samaraliroq hisoblanadi.

4.4. Tadqiqotning cheklovlari: Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim: namunaning nisbatan kichik hajmi ($n=120$), faqat bitta hududdagi bo'linmalar bilan chegaralanganligi, shuningdek faqat erkak xodimlar va ularning ayol turmush o'rtoqlari o'rganilgani (ayol xodimlar oilalari tadqiqotga kiritilmagan). Bundan tashqari, tadqiqot ko'ndalang kesim (cross-sectional) dizaynida o'tkazilgani sababli, sabab-oqibat munosabatlarini qat'iy tasdiqlash imkonini bermaydi — faqat bog'liqlik (korrelyatsiya) haqida gapirish mumkin.

Kelgusi tadqiqotlarda namunani kengaytirish, ayol xodimlar oilalarini ham qamrab olish, shuningdek longityud (bo'ylama) tadqiqot dizaynidan foydalanish, bu esa vaqt o'tishi bilan tolerantlik darajasining o'zgarish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

XULOSA: O'tkazilgan tadqiqot ichki ishlar organlari xodimlari oilalarida tolerantlik darajasi xizmat staji va kasbiy stress darajasi bilan bog'liq holda o'zgarib borishini, ammo turmush o'rtoqning empatik pozitsiyasi bu bog'liqlikni sezilarli darajada yumshatishini ko'rsatdi. Tolerantlikning kognitiv komponenti nisbatan barqaror bo'lsa-da, emotsional va xulq-atvor komponentlari kasbiy stress ta'siriga ko'proq moyil ekanligi aniqlandi. Bu natijalar oilaviy tolerantlikni mustahkamlashga qaratilgan, xodim va uning turmush o'rtog'ini birgalikda qamrab oluvchi maqsadli psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allport G.W. The Nature of Prejudice. — Cambridge: Addison-Wesley, 1954.
2. Soldatova G.U., Kravtsova O.A., Xuxlaev O.E., Shaygerova L.A. Psixodiagnostika tolerantnosti lichnosti. — Moskva: Smysl, 2008.
3. Boyko V.V. Energiya emotsiy v obshenii: vzglyad na sebya i na drugix. — Sankt-Peterburg: Piter, 1996.
4. Olson D.H., Portner J., Lavee Y. FACES III (Family Adaptability and Cohesion Evaluation Scales). — University of Minnesota, 1985.
5. Olifirovich N.I., Zinkevich-Kuzemkina T.A., Velenta T.F. Psixologiya semeynykh krizisov. — Sankt-Peterburg: Rech, 2006.

6. Spilberger Ch.D. Understanding Stress and Anxiety. — New York: Harper & Row, 1979.
7. Maslach C., Jackson S.E. The Measurement of Experienced Burnout // Journal of Occupational Behaviour. — 1981. — Vol. 2. — P. 99-113.
8. Karimov Sh.X. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik moslashuv muammolari. — Toshkent, 2020.
9. G'oziev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2010.
10. Shodmonova Sh.A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. — Toshkent, 2018.